



OILA VA OILAVIY MUNOSABATLARDA ETNIK TA'SIRLARNING ROLI

Ostanaqulov Alijon Dadajon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi
adams1097@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8072808>

ARTICLE INFO

Received: 15th June 2023

Accepted: 22th June 2023

Online: 23th June 2023

KEY WORDS

Oilaviy munosabatlar, kommunikatsiya, oila, hayotshunoslar, irsiyat, oila motivlari, etnik omillar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada oila ijtimoiy hayotning abadiylikni, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini bajarishi yoritilgan. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentyabrdagi yalpi yig'ilishida 1994-yildan boshlab 15-mayni "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlashga kelishilganligini o'zi ham bu masalani xalqaro miqiyosida qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g'amxo'rliqi oilalarning mustahkamligi va tinchligiga asos bo'lgan. Shu bois mamlakatimizda 1998-yil "Oila yili", 2012-yil "Mustahkam oila yili", 2016-yil "Sog'lom bola va ona yili" deb e'lon qilinganligi hamda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018-yildagi PQ-3808-son qarori bilan uning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlanishi, shuningdek, 2019-yildan boshlab har yili 15-mayda mamlakatimizda Xalqaro oila kuni nishonlanishi davlatimizdagi oilaviy muhit va uni mustahkamlash uchun qilinayotgan amaldagi sa'y-harakatlarning yaqqol na'munasidir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur".

Darhaqiqat, asrlar davomida o'z e'tirofini topgan va diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi.

Inson farzandi ota-onadan genetik meros oladi. Unga ajdodlari genofonidan ham ulush tegadi, albatta. Buni hayotshunoslar irsiyat, deyishadi. Yorug' olamga ko'z ochgan dilbandlar dastlab oliy darajadagi moddiy qadriyatlar hisoblanmish havo, ona suti, suvdan bahramand



bo'ladilar. So'ngra shaxs kamolotini ro'yobga chiqishiga asos bo'ladigan hamda uni ta'minlaydigan muhim omillardan biri oilaviy tarbiya omili boshlanadi.

Oila "millat sharafini" yuqori martabaga ko'taradigan zaminu vosita hisoblanadi. Oilada farzandlar tug'iladi, o'ziga xos xususiyatlari, insoniy fazilatlari vujudga keladi, shaxs shakllanadi. Oila va oilaviy munosabatlar madaniyati hamda shaxsning, yosh avlodning umummadaniy-ma'naviy dunyoqarashining shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'siri muammosini ilmiy tahlil qilish qator fanlarning o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. O'z navbatida oilaviy munosabatlar madaniyati shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi birinchi omil bo'lib, oilaviy muhitning ham jismonan ham ma'nan sog'lom bo'lishi jamiyat taraqqiyotiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi.

Oilaviy munosabat madaniyati nima? Bu - oilada insonga xos va mos sharoitlarni yaratish, oilaning vazifalarini to'la bajarish, oilaviy turmush tarzini to'g'ri shakllantirish, oila a'zolarining xulq-odobi, dunyoqarashi, mafkurasini, oilaviy hayotning davomiyligini ta'minlashdir. Mustahkam oila mustahkam jamiyatning asosidir. Shunday ekan jamiyat oilalarni mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirib, takomillashtirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Oila va oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalashdan boshlamog'imiz lozim. Oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir. Oila shakllarining o'zgarishi, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma'naviyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil etilgan.

Lekin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi. Madaniy qashshoq bo'lgan odam boy bo'lib qolsa, birdaniga ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarilib qolmaydi. Pedagog-olimlar mazkur mavzuning ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini tadqiq etib, oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rniga alohida e'tibor berib, oilaviy tarbiyani umumiy tarbiyaning bir qismi sifatidagi jihatini yoritishmoqda; psixolog olimlar oila va oilaviy munosabatlarga etno-psixologik jihatdan yondoshmoqdalar. Etnograf-tarixchilar ham oilaning kelib chiqishi va oilaviy munosabatlar madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq masalalarga to'xtalib, oilaviy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganganlar.

Faylasuf olimlarimiz masalaning mohiyatini ochib berishda shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati haqidagi umumaxsiologik qonuniyatga suyangan holda, shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat degan nazariy konsepsiyani o'rta tashlaganlar. Xuddi shu konsepsiyadan esa oilada farzand tarbiyasi ijtimoiy xarakterga ega degan boshqa bir nazariy xulosa kelib chiqishi tabiiydir. Madaniyatshunoslar oilaviy munosabatlar madaniyatining yosh avlod tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilib kelmoqdalar.

References:

1. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲҚАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*. [Vol. 2 No. 13, 2023](#). 129-133. pages.



2. A.R.Abdullayeva //PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 4, Issue 3. March, 2023. 43-50 pages.
3. A.P.Абдуллаева, М.Р.Абдукаримова //ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҚ МОТИВЛВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// О‘ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 14-SON. 20.12.2022. 1132-1138 betlar.
4. **Ostanakulov Alijon Dadajon ugli, Gulnora Ergasheva** //THE STATE OF STUDYING THE PROBLEM OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE// Gospodarka i Innowacje. [33 \(2023\)](#). 159-163.
5. Ostanakulov Alijon Dadajon ugli, Tojimatova Gavharoy Gulomjonovna //SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ORIGIN OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS// Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. Volume-10| Issue-12| 2022. 215-222 pages.
6. Ostanakulov Alijon Dadajon Ugli //THE HISTORY AND ROLE OF ISLAM AND PSYCHOLOGY IN THE EDUCATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA// *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. Volume 2, Issue 4. April, 2021. 279-277 pages.
7. Ostanakulov Alijon //SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR IN ADOLESCENCE// INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference. 27 th May, 2023. Chelyabinsk, Russia: "CESS", 2023. Part 19. 114-120 pages.
8. Ostanakulov Alijon. (2023). STUDY OF SUICIDAL CASES IN THE PERIOD OF ADOLESCENCE IN FOREIGN COUNTRIES. *Scientific Impulse*, 1(10), 636-641.
9. OR Parpiyeva, AD Ostanakulov //Health theory// Международный научно-практический журнал “Форум молодых ученых”. Вып №6 (34) 2019. 26-29 стр.
10. A.Ostanakulov //O‘SMIRLAR RUHIY SALOMATLIGINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI// О‘ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI// 20-SON. 20.06.2023. 500-505 betlar.
11. A.R.Abdullayeva //THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 670-674 pages.
12. M.T.Isakova //OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2021-yil, 2-son. 127-134 betlar.
13. G‘aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.
14. Odinakhan Rakhmanovna Parpieva, & Davlatov Hamidjon Dilshodjon oqli. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(11), 760-763.